

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTIRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfiya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLER 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА.. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDochILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024

Accepted: 15 December 2024

Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

THE SIMILARITIES BETWEEN SULAMI'S "TABAQAT AL-SUFIYA" AND ALISHER NAVOI'S "NASOYIM UL-MUHABBAT"

Saydullaeva Dilrabo Ilkhom qizi

PhD student of SamSU, Assistant of SamSMU

Abstract. This article analyzes the similarities between Alisher Navoi's "Nasoyim ul-muhabbat" and Abu Abdurahman Sulami's "Tabaqat al-sufiyya". The study focuses on the classification of Sufis, their lives, activities, and spiritual views as described in both works. The findings reveal the interconnection between the two remembrances and their significance in the history of Sufism.

Keywords: Alisher Navoi, Abu Abdurahman Sulami, Nasoyim ul-muhabbat, Tabaqat al-sufiyya, Sufism, Sufis, remembrance.

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLAR

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

SamDU tayanch doktoranti, SamDTU stajyor-assistenti

Abstract. This article analyzes the similarities between Alisher Navoi's "Nasoyim ul-muhabbat" and Abu Abdurahman Sulami's "Tabaqat al-sufiyya". The study focuses on the classification of Sufis, their lives, activities, and spiritual views as described in both works. The findings reveal the interconnection between the two remembrances and their significance in the history of Sufism.

Keywords: Alisher Navoi, Abu Abdurahman Sulami, Nasoyim ul-muhabbat, Tabaqat al-sufiyya, Sufism, Sufis, remembrance.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N28>

Kirish. Alisher Navoiy nafaqat ko'plab she'riy va nasriy asarlar yaratgan adib, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix va tasavvufga oid qimmatli kitoblar yozgan yirik olim sifatida ham mashhurdir. U so'fiyona mazmundagi she'riy asarlaridan tashqari o'z davridagi ilm-fanning boshqa sohalari qatorida tasavvufga bag'ishlangan mashhur asarlar ham yozgan. Jumladan, ustoz Abdurahmon Jomiyga atalgan "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Besh hayrat") (1492-1493), zamondosh so'fiylar Pahlavon Muhammad va Sayyid Hasan Ardasheriga bag'ishlangan "Holoti Pahlavon Muhammad" ("Pahlavon Muhammadning hayoti") (1493-1494) va, "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" ("Sayyid Hasan Ardasherining hayoti") (1488-1489) manoqiblari hamda so'fiylarning hayoti va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim al-futuvvat" ("Ulug'lik xushbo'yliklarini

taratuvchi muhabbat shabadalari”) [1; 3-b.] (1496) tazkirasi uning soʻfiylar hayoti, faoliyati, karomatlari va qarashlariga bagʻishlangan asarlari hisoblanadi. Hazrat Navoiyga qadar turkiy tilda tasavvuf nazariyasi, shuningdek, soʻfiylar hayoti va faoliyati toʻgʻrisida maxsus asarlar yaratilmagan yoxud bor boʻlsa-da haligacha aniqlangan emas. Shu sababdan Navoiyni soʻfiylar agiografiyasiga oid ilk turkiy asarlar muallifi va oʻzbek agiografiyasining asoschisi deb atay olamiz.

Bizga maʼlumki, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarini yozishda oʻsha davrga qadar yaratilgan tasavvufga doir bir necha manbalardan foydalangan. Jumladan, uning oʻzi asar muqaddimasida “Nafahot ul-uns” dan tashqari Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridan ham foydalanganini, bundan tashqari, manbalarini koʻrsatmagan holda Hindiston va Turkistondan yetishib chiqqan soʻfiylar haqida ham maʼlumotlar toʻplaganini toʻgʻrisida yozib qoldirgan. Oʻzaro qiyoslab oʻrganishlar asosida esa “Nasoyim ul-muhabbat” va Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya” asarlari orasida ham bir qancha mushtarakliklar mavjudligi koʻzga tashlandi.

Asosiy qism. Ikromiddin Ostonaqulov oʻzining “Muhammad Siddiq Rushdiy ”Tazkirat ul-avliyo” asarining sharq agiografik manbalarini oʻrganishdagi ahamiyati” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasining 2-bobi 3-faslida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asariga ham batafsil toʻxtalgan boʻlib, jumladan: “Navoiy bun asarni yozishda Jomiy matnigagina suyanib qolmay, Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya”, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Muhyiddin Arabiyning “Futuhoti Makkiya”, shuningdek, oʻz davrida mashhur boʻlgan qator manoqiblardan ijodiy foydalangan”[2; 99-b], -degan jummalarni qayd etadi.

Sulamiy va Navoiy tazkiralari bir qancha mushtarak jihatlariga ega boʻlib, bular asosan quyidagi oʻrinlarda koʻrinadi:

- 1) soʻfiylarning qaysi tabaqadan ekanligi har ikki manbada ham keltirilishi va asos qilib Sulamiy manbasiga tayanilganligi;
- 2) har bir shayxning tavallud topgan yerini aniq koʻrsatishga intilish anʼanasi;
- 3) Sulamiy asariga kiritilgan ayrim soʻfiylar haqidagi rivoyatlarning Navoiy tazkirasida ham ayni shaklda uchrashi.

“Tabaqot us-sufiya” tazkirasi Fuzayl ibn Iyoz zikri bilan boshlangan boʻlib, asar muqaddimasida muallif 5 tabaqaning har biriga 20 tadan soʻfiy zikri jamlanishini qayd etgan, ammo ikkinchi tabaqada Muhammad va Ahmad ibn Abulvard nomli aka-ukalarni bir nom ostida qayd etib, soʻnggi tabaqada esa 24 soʻfiy zikrini keltirib, asarda nomi keltirilgan soʻfiylar sonini 105 taga yetkazgan.

Navoiy oʻz tazkirasini yaratishda, asosan, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasiga tayangan va unda keltirilgan 618 shayx zikrini 770 nafarga yetkazgan. Navoiy tazkirasining yuqoridagi ikki tazkiradan asosiy farqi qisqalikka qatʼiy amal qilishida koʻrinadi. Sulamiy “Tabaqot us-sufiya” da soʻfiylarning har biriga batafsil toʻxtalishga harakat qilgan hamda ular tilidan juda koʻp tasavvufiy istilohlar izohi va tariqatning yoʻl-yoʻriqlari bayoniga ham toʻxtalgan. Alisher Navoiy esa muxtasar maʼlumot berishni ixtiyor qilgan boʻlib, yoʻl-yoʻlakay kengroq maʼlumot olishni istagan kishiga Attor yoki Jomiy asarlariga murojaat qilishlikni tavsiya qilib ketgan. Bundan koʻrinadiki, Navoiy oʻz takirasida yuqorida nomlari keltirilgan tazkiralalar matnini shunchaki qayta-qayta takrorlashni istamagan, ulardagi bahsli

o'rinlarni ham chetlab o'tishga harakat qilgan. Qolaversa, o'quvchilarni boshqa tazkiralarni matni bilan mustaqil tanishib chiqishga undagan.

Navoiy ham, Sulamiy ham o'z asarini muqaddima bilan boshlagan bo'lib, muqaddima qismida har ikki ijodkor ham dastlab, Olloh taolaga hamd keltiradi va qolaversa, muqaddimada hadis va Qur'oni karim oyatlaridan parchalar uchraydi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya” asaridan bevosita ta'sirlangan deyishimiz mumkin. Bunga dastlabki sabab Aynan Sulamiy boshlab bergan so'fiylarni tabaqalarga bo'lish tamoyilini Navoiy ham o'z tazkirasida saqlaganligidir. Sulamiyning o'zi asar muqaddimasida bu haqida to'xtalib, shunday deydi: “Kitobni 5 qism qilib yaratdim va unda so'fiylarning imomlari, shayxlari va olimlaridan bahs yuritdim. Har bir qism muayyan bir tabaqa vakillariga ataldi, bunda men ayni bir yoki bir-biriga yaqin vaqt oralig'ida yashagan so'fiylaridan eng mashhur 20tasini tanlab olib, zikrini keltirdim. Bundan tashqari, qo'limdan kelgancha har birining nasihatlarini, hayoti va faoliyati haqida ilm hosil qilishga yetgulik ma'lumotlarni kiritdim”. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham so'fiylarning har biri qaysi tabaqaga mansub ekanliklarini qayd etib o'tgan [3; 20-b] . Misol uchun:

“Zunnun Misriy – avvalgi tabaqadandir;
Junayd Bag'dodiy – ikkinchi tabaqadandir;
Mansur Xalloy – uchinchi tabaqadandir;
Abu Bakr Shibliy – to'rtinchi tabaqadandir;
Abu-Usmon Mag'ribiy – beshinchi tabaqadandir”[3; 20-b].

U bu tabaqalanish tartibini Sulamiy asarida aynan uchraydigan ketma-ketlikda, so'fiylar tabaqalari tartibini saqlagan holda o'zlashtirgan.

Navoiy tazkirasida Sulamiy tazkirasida uchraydigan deyarli barcha so'fiylar zikrini topish mumkin. Qolaversa, Navoiy ham, Sulamiy ham o'z tazkiralari so'fiylarning tug'ilgan yeri va tasavvufda tutgan yo'li, ustozini ko'rsatishga katta e'tibor bergan. Jumladan, quyidagi ma'lumotlar ikki manbada ham ayni shaklda uchraydi.

Qolaversa, asarda keltirilgan qissalar orasida har ikki asarda birdek uchraydiganlarining mavjudligi ham fikrimizni quvvatlashga asos bo'la oladi. Jumladan, Sulamiy asarida keltirilgan 1-tabaqa vakillari haqidagi quyidagi qissa yoki qissa parchalari bevosita “Nasoyim ul-muhabbat” asarida ham uchraydi:

1) Ibrohim Adhamning yigitlik chog'ida ovga chiqishi va g'oyibdan “Seni shu ish uchun yaratdikmi?” -degan sasning kelishi va bu sas uni chuqur o'yg'a toldirib, bor mol-mulk, hukmronlik shon-shavkatidan voz kechib. Tarkidunto qilgani haqidagi qissa har ikki manbada uchraydi. Garchand “Tabaqot us-sufiya” asarida Ibrohim Adham zikri 3- bo'lib tilga olingan bo'lsa ham, Navoiy o'z tazkirasida uni 25-o'rinda keltirgan.

2) “Nasoyim ul-muhabbat” asarida 23-o'rinda va “Tabaqot us-sufiyya” da 9-o'rinda kelgan Abu Sulaymon Doroniy zikridagi Abu Ahmad Ibn Abulhavoriy tilidan aytilgan rivoyat ayni shaklda ikki manbada ham uchraydi. Unga ko'ra, Ahmad ibn Abulhavoriy ehtirom bilan Sulaymon Doroniyga murojaat qilib, o'zining hech kimsa yo'q bo'lgan xilvat joyda namoz o'qigani va bundan qalbi lazzat topganini aytadi va Sulaymon Doroniy bunga javoban so'fiy kishi qalbiga yaratilmishlar yodi tushishi zaiflikning belgisi ekanini aytadi.

3) Manbalarning Ma'ruf Karxiyga bag'ishlangan qismlarida keltirilgan bir rivoyat ham ikki manbada ham ayni ko'rinishda uchraydi. Unga ko'ra, Ma'rufdan muhabbat haqida

so'ralganida u muhabbat odamlardan o'rganiladigan narsa emas, balki u Haqning lutfi va ehsonidir, deya javob bergan ekan.

4) Hotam Asamm zikrida uchraydigan to'rt o'lim to'g'risidagi rivoyat ham Sulamiy va Navoiy asarlarida aynan bir xil shaklda keltirilgan. Navoiy garchand rivoyat manbasi haqida to'xtalmagan bo'lsa-da, Sulamiy "Tabaqot us-sufiyya" da bu haqida Nasr ibn Abu Nasr al-Attordan eshitganligini qayd etgan. Unda Hotam Asammning tilidan tariqat yo'liga kirgan kishi o'z nafsiga to'rt o'limni tottirmog'i kerakligi aytilgan bo'lib, ular oq, qora, qizil va yashil o'limlardir. Oq o'lim (mavtu abyaz) – ochlikdir, qora o'lim (mavtu asvad) – insonlardan kelgan aziyatga sabr qilmoqdir, qizil o'lim (mavtu ahmar) – nafs muxolafati va yashil o'lim (mavtu axzar) – hirqani qayta-qayta yamab kiymoqdir.

5) Har ikki manbadagi Ahmad ibn Abulhavoriy zikrida ham ayni shaklda uchraydigan shunday bir o'rin mavjudki, unda dunyo Abulhavoriy tilidan axlatxonaga mengzalgan. Axlatxona faqat itlar yig'iladigan joy, biroq hatto itlar ham o'ziga keragini olgach, uni tark etadi. Biroq bu dunyoga ko'ngil qo'yanlar esa undan hech zamon ayrila olmasliklari aytiladi.

Xulosa. Buyuk mutasavvuf olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Salim al-Basriydan "Xalq orasida avliyoni qanday tanib olish mumkin?" deb so'rashganda, shunday javob bergan ekanlar:

tili shirinligi va xushmuomala suhbat;

axloqining go'zalligi, chehrasidagi tabassum;

jo'mardligi, saxiyligi;

e'tirozi ozligi;

uzr so'rab, xatolari kechirilishini so'ragan kishilarning uzrlarini tez qabul qilishi;

butun maxluqotlarga – yaxshi-yomon insonlarga, hayvonot olamiga rahm-shafqatli bo'lishligidan bilib olish mumkin.

Darhaqiqat, har ikki manbani qiyosan o'rganar ekanmiz, diqqatimizni tortgan eng asosiy o'rin bu ikki ijodkorda ham valiy zotlarni xalqqa tanitish istagining nihoyatda kuchli bo'lganligi bo'ldi. Sulamiy ham, Navoiy ham o'z asarlarida valiy zotlarning yashagan vaqti, hududi, kunyati, tasavvufda tutgan o'rni, suluki kabi masalalarga nihoyatda keng to'xtalgan bo'lib, muayyan so'fiy zikrida yuqorida bayon etilgan xislatlarining har birini ko'rsatishga intilganlar va bu ishni uddalaganlar ham.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki:

-Kelgusida har ikki asarni yana-da yaxshiroq chog'ishtirish orqali falsafiy, diniy-irfoniy, adabiyotshunoslik yo'nalishlarida maxsus tadqiqotlar olib boorish maqsadga muvofiq;

-“Nasoyim ul-muhabbat” va “Tabaqot us-sufiya” soha mutaxassislari uchun jahon allomalari to'g'risidagi qomusiy yodgorliklar sifatida qiyosiy manbalar vazifasini o'tashga xizmat qiladi;

-“Nasoyim ul-muhabbat” asari bu turdagi tazkiralarni qiyoslab o'rganishda tarixiy manba bo'lish bilan birga, munosib ilmiy-uslubiy qo'llanma bo'lib ham xizmat qila oladi;

-as-Sulamiyning “Tabaqot us-sufiya” asari o'zidan oldin yaratilgan va o'zidan keyin ta'lif etilgan agiografik asarlarni o'rganishda nazariy manba sifatida g'oyatda ahamiyatlidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Алишер Навоий. Насойимул муҳаббат: (Илмий- танқидий матн). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва кўрсаткичлар муаллифи Ҳ.Исломий. – Т.: Movarounnahr, 2017.
2. Nazarov B.N. Islom agiografiyasi tizimida maqomotning o'rne va uning badiiy-uslubiy xususiyatlari (Bahouddin Naqshband maqomolari asosida). T., 2007.
3. Ikromiddin Ostonaqulov "Muhammad Siddiq Rushdiy "Tazkirat ul-avliyo" asarining sharq agiografik manbalarini o'rganishdagi ahamiyati" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi. 2011.
4. Ebu Abdurrahman Es-Sulemi. Tabakatu's sufiyye. İlk Zahid ve sufiler. Istanbul., 2023.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).